MADANIYATLARO MULOQOTDA O’ZBEK TILINING O’RNI.

Axadova Sojida Sobirjon qizi, *O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti o’qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda turli xalqlar, tillar, madaniyatlar aralashgan bir paytda, boshqa madaniyatlarga qiziqish, ularni hurmat qilish, ularni tushunishga harakat qilish, ularga sabr-toqat bilan yondashishni o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo`lib kelayotganligi, madaniyatlararo samarali aloqalarni kuchaytirishda o’zbek tilining ahamiyati muhim hisoblanishi haqida so`z boradi.

Kalit so’zlar. O’zek tili, psixologiya, tilshunoslik, madaniy aloqalar, madaniyatlararo aloqa , til, muloqot, so’zlar.

Kirish. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan buyon o’ttiz yildan ortiq muddat o‘tdi. Ona zamini, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo‘lsa, uning Ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo‘ladi.Shu sababdan ham tilshunoslikda hamisha til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi masalasiga, millatning o‘ziga xos urf-odati, an’anasi, madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lgan nutqni normaga solish hamda qonun-qoidalarga rioya qilinishi muammolariga e’tibor qaratib kelingan. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini uzoq yillar davomida o‘rganish va tahlil qilish natijasida umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa kabi fanlarning yangidan-yangi qirralari ochildi .Aslida, bu yorug‘ olamda har birimizning to‘rt onamiz bor. Ular – bizni dunyoga keltirgan onamiz, ona zamin, ona tariximiz va ona tilimiz. Ularning har birini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, dardiga darmon bo‘lish har birimizning chin farzandlik burchimiz. Tilning himoyasi bugun qonun qabul qilinganidan buyon 33 yil vaqt o‘tgan kunlarda ham Vatan himoyasi singari g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, o‘z davlat tilini bilish va uni o‘rganish yuksak ma’naviyat, Vatan va xalqqa sadoqat belgisidir

Til o'rganish nafaqat alifbo, lug'at va grammatikani o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, matn mazmunini, masalan, xulq-atvor va madaniy me'yorlarini o'rganishni o’z ichiga qamrab olishi zarur. Yangi axborot



texnologiyalari tufayli ish jarayonlari, kundalik hayot tarzi, ta’lim va kundalik muloqot jarayonlarida madaniyatlararo o’zaro ta’sirning barcha xususiyatlari ko’z o’ngimizda o’zgarib bormoqda. Masalan, talabalar qandaydir yangi tilni o'rganayotganlarida yangi til mazmuni haqida va bu tilni o'rganish jarayonida ushbu til xususiyatlari bilan birgalikda madaniyat bilan ham bevosita muloqot qilish qobiliyatiga ega bo’ladilar. Har qanday tilni o'rganish uchun ular nafaqat tilni, balki u bilan bog’liq barcha xususiyatlarni: joy, makon, tarix va madaniyatni o’rganish jarayonidan o’tadilar. Shunday qilib, ular tildagaplashish orqali o'sha til madaniyatiga, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchi va mohiyatiga avtomatik ravishda singib ketishlari mumkin. Til va madaniyat doirasida tildan tashqari, real dunyoda mavjud bo’lgan madaniy voqelikda qo’llaniladigan lingvistik shakllar emas, balki boshqa ramziy tizimlar mavjuddir: biz madaniyat deb ataydigan odatlar, e’tiqodlar, yodgorliklar va madaniy hodisalar shular jumlasidandir. Madaniyatga aylanish uchun tildagi har bir tarkibiy qism ma’nogaega bo’lishi kerak. Politzer va Brusk kabi ba'zi olimlarning fikricha, “Til va madaniyat bir xil tushunchalardir”. O'qituvchilar nafaqat o'z o'quvchilariga madaniyatlararo muloqot qanday sodir bo'lishini taqdim etishlari va tavsiflashlari kerak, balki madaniyatlararo muloqotda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'yinlar yoki simulyatsiyalar kabi amaliy vositalarni ham qo’llashlari zarur. Madaniyatlararo va shaxslararo samarali muloqotni ular haqida yetarlicha tushunchaga ega bo’lmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ma,,lumki, inson bolaligidan boshlab o`z millatiga xos til va til orqali madaniyatni o`rganib boradi. Shundagina u inson hisoblanadi. Xalqning nozik madaniy belgilari uning tilida aks etadi. Til insonning o`ziga xos va o`ziga mos atributlaridan bo`lib, u orqali inson o`zini va olamni anglaydi. Madaniyatlararo muloqot -turli madaniyat vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotning samarasi va muvaffaqiyati faqatgina turli madaniyatlar va tillarni biluvchisi bo'lgan kommunikatorlarning har biri "turlicha" ekanliklari va har biri muqobil



ravishda "begona" suhbatdoshlarini anglab yetganda sodir bo'ladi. Madaniyatlararo samarali aloqalarni kuchaytirishda tilning ahamiyati muhim hisoblanadi. Til inson miyasidagi qobiliyat. Bu odamlarga o‘z madaniyatini va boshqa mamlakatlarning madaniyatini tushunishga imkon beradi. Har bir mamlakatning o’ziga xos madaniyati bor.

Muloqot - bu biz gapirishga odatlangan uslubimizga olib keladigan madaniyat. Biz har kuni boshqacha gapiramiz, nutqimiz takrorlanmaydi va kontekst, shaxsiyat va kayfiyat kabi omillar turli xil madaniy ta'sirlar bilan o'zaro ta'sir qilishi bizning tanlovimizga ta'sir qilishi mumkin. Ma'lumki, insonning tabiiy tili murakkab, ziddiyatli va ko'p qirrali hodisadir. Tilshunoslik fani unga turli pozitsiyalardan, turli jihatlardan yondashadi. Xullas, keyingi yillarda unga aloqa vositasi sifatida ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Qolaversa, til inson va jamiyatni takomillashtiruvchi qudratli ijtimoiy kuch sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu global funktsiyani amalga oshirishda amaliy amalga oshirishga qaratilgan kontseptual bilimlarni tizimlashtirishda to'plangan ilmiy ma'lumotlardan optimal foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tilning yoyilishi, uni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj uning targ‘iboti bilan bog‘liq. Targ‘ibot uchun avvalo o‘sha tilni o‘rgatadigan manbalar, qo‘llanma va kitoblar, videomateriallar ham yetarlicha bo‘lishi kerak. O‘zbek tili 1989 yildan beri davlat tili ekani, O‘zbekistonda 130dan ortiq millat vakillari yashashi inobatga olinsa, o‘zbek tilini o‘rgatadigan mukammal qo‘llanmalar tuzishning vaqti kelib, o‘tib ham ketgan. Bu — O‘zbekistonda yashaydigan turli millat vakillarining tilini o‘rganishga bo‘layotgan rag‘bati yo‘qolishiga sabablardan biri bo‘lyapti. O‘zbekistonda bo‘lish va ko‘proq odamlar bilan muloqot qilish o‘zbek tilini o‘rganishni osonlashtiradi. Lekin O‘zbekistonda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan rus millati vakillari o‘zbekchada ham gaplashish, ham yozishni o‘rganish uchun mukammal manba yo‘qligini ko‘p bora aytishadi. Bunday muammolarni hal qilish uchun yaqinda MO‘TUL jamoasi va Gulruxsor Ergasheva tomonidan til darajalariga ajratilgan «O‘zbekona» kitobi ham nashrdan chiqqan.



Muallifning aytishicha, markazda hozir shu kitob asosida darslar o‘tiladi. Kitob A1, A2, B1, B2 darajalarga ajratilgan bo‘lib, har bir darajani 3 oyda bitirib chiqish mumkin.

«Dastlabki 4 darsda vositachi til ingliz, rus yoki turk tili bo‘ladi. Beshinchi darsdan boshlab o‘zbek tilida gaplasha boshlaymiz. Markazimizda hozirgacha mingdan ortiq o‘quvchi bitirib kelgan bo‘lsa ularning 700 nafardan ortig‘i rus millatiga mansub kishilar. Hozir lug‘atlar kitobi ustida ishlayapmiz», — deydi hammuallif.

Bugungi kunda kelib o’zbek tilida so’zlashuvchilarning soni 50 milliondan ziyod ekanligi ko’rsatilmoqda. Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug‘atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi asosan, 5 manba negizida tashkil topgan :

1. Umum turkiy so‘zlar;
2. O‘zbekcha so‘zlar;
3. Fors-tojikcha so‘zlar;
4. Arabcha so‘zlar;
5. Ruscha so‘zlar;

Umumturkiy so‘zlar ko‘pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladigan barcha turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan ko‘pgina so‘zlar borki, ular azaldan turkiy qabilalar tilida mavjud edi, ular hozir ham ishlatiladi. Masalan: kishi, ot, qo‘l, oyoq…

O‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tili sharoitida, ushbu til yoki boshqa til elementlari yordamida ko‘pgina so‘zlar yaratilgan. Masalan: ishxona, so‘roq, ulfatchilik, bog‘dorchilik…

Fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida tubandagi kabi so‘zlar



bor. Ular dasturxon, chiroq, parda, marvarid, marjon…

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar. Arab so‘zlari o‘zbek tiliga VII—VIII asrlardan boshlab kiradi. Bu hol arablarning shu davrda O‘rta Osiyoni zabt etishlari bilan bog‘liq. Hozirgi o‘zbek tilida arab tilidan kirgan quyidagi kabi so‘zlar mavjud: kasb, mehnat, hayvon, ittifoq, millat… Arab so‘zlari birinchidan kitob, madrasa, din, davlat tuzimi orqali kirgan. Ikkinchidan Eroniy tillar orqali kirgan. Uni masalan arab so‘zlariga tojikcha morfemalar qo‘shib yasalgan. Masalan: darxaqiqat, mansabdor, mulkdor, baquvvat… kabi so‘zlardan bilsa bo‘ladi.

Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar. O‘zbek milliy tilining shakillanishi va rivojlanishida rus millatining tili g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Rus xalqi bilan o‘zbek xalqi orasidagi yaqin aloqa, ayniqsa ruslarning iqtisodiy va madaniy ta’siri rus tilidan ruscha va yevropa tillariga oid so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar: fabrika, gimnaziya, doktor, shapka..

Bu ma’lumotlar shuni ko’rsatyaptiki bizning ona tilimiz davlatlararo o’zlashgan so’zlardan tashkil topgan ekan, uning qadimgi tarixi ham shu davlatlar bilan bog’liqdir.

O'zbek tilini xorijliklarga o'qish yo’nalishi avvallari ochilmagan edi va bugungi kunga kelib tilimiz, madaniyatimizga chet elliklar e’tibori tushganligi bois bizning tilimizni o’qitish uchun talablar borgan sariortib bormoqda. Shu bois hamjihatlikda ishlash va mukammal o'quv - uslubiy dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kelajakda jahonning turli mamlakatlari bilan aloqalarimizni yanada yaxshilash, shu yo’nalish haqida malakali xodim yetkazib chiqarish ,

BMT minbarida yangragan ona tilimiz aloqalar tiliga aylantirilishi uchun shunday poydevor yaratishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Atakulovna R. N. XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 22. – №. 2. – C. 97-104.

2. Abdunazarov F. K. MADANIYATLARARO MULOQOT TURLARI VA



XUSUSIYATLARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 152-157.

3. Atakulovna R. N. XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING BIR NECHA JIHATLARI //World scientific research journal. – 2023. – T. 12. – №. 1. – C. 70-75.v

4. Baxronova D.K. OLAM MANZARASI: TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT. – Monografiya, GlobeEdit, 2023. – 212 b.

5. Bakhronova, D. K. (2018). Comparative analysis of linguistic anthropozooomorphic totems in Spanish and Uzbek. Art Logos, 117-122.

6. https://interonconf.org/index.php/ind/article/view/3789/3390

7. https://cyberleninka.ru/article/n/english-and-uzbek-languages-as-a-result-of-cross-cultural-communication

8. https://kun.uz/uz/news/2022/10/17/ozbekchani-organishga-ozga-millatlarda-ragbat-yoqmi-yoki-orgatishga-bizda-xohish-yoq

9. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek_tili#Tarixi